

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH: AMALIY YONDASHUV

Sharopova Zarnigor Tolib qizi

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish masalasi yoritilgan bo'lib, aynan bu yosh davrining psixologik va pedagogik xususiyatlari inobatga olingan holda amaliy yondashuvlar taklif etiladi. Tanqidiy fikrlash bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida shaxsiy va ijtimoiy muvaffaqiyat uchun zarur bo'lgan asosiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun bu ko'nikmani maktab ta'limining ilk bosqichidanoq shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Maqolada tanqidiy fikrlash tushunchasi, uning asosiy komponentlari (tahlil qilish, solishtirish, baholash, xulosa chiqarish, qaror qabul qilish) haqida qisqacha nazariy ma'lumot berilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga mos metodik yondashuvlar, didaktik usullar, guruhli ishlar, muammo asosida o'qitish va savol-javob texnikalarining afzalliklari amaliy misollar bilan ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: fikrlash ko'nikmalari, amaliy yondashuv, o'quvchilarda tafakkurni rivojlantirish, savol-javob usuli, faol o'qitish metodlari, muammo asosida o'qitish, dars jarayonida fikrlash, ijodiy va tanqidiy tafakkur, pedagogik innovatsiyalar.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос формирования навыков критического мышления у учащихся начальной школы и предлагаются практические подходы, учитывающие психолого-педагогические особенности этого возраста. Критическое мышление является одной из ключевых компетенций, необходимых для личностного и социального успеха в современный век глобализации и цифровых технологий. Поэтому формирование этого навыка с первой ступени школьного образования является одной из актуальных проблем. В статье приводятся краткие теоретические сведения о понятии критического мышления, его основных компонентах (анализ, сравнение, оценка, вывод, принятие решений). Также на практических примерах показаны преимущества методических подходов, дидактических методов, групповой работы, проблемного обучения и вопросно-ответных методик, соответствующих возрасту учащихся начальной школы.

Ключевые слова: мыслительные навыки, практический подход, развитие мышления учащихся, вопросно-ответный метод, активные методы обучения,

проблемное обучение, мышление в процессе урока, творческое и критическое мышление, педагогические инновации.

Abstract. *This article discusses the issue of forming critical thinking skills in students at the primary school level, and practical approaches are proposed, taking into account the psychological and pedagogical characteristics of this age. Critical thinking is one of the key competencies necessary for personal and social success in today's age of globalization and digital technologies. Therefore, the formation of this skill from the first stage of school education is one of the urgent issues. The article provides brief theoretical information on the concept of critical thinking, its main components (analysis, comparison, evaluation, conclusion, decision-making). Also, the advantages of methodological approaches, didactic methods, group work, problem-based learning and question-and-answer techniques appropriate for the age of primary school students are shown with practical examples.*

Keywords: *thinking skills, practical approach, developing thinking in students, question-and-answer method, active learning methods, problem-based learning, thinking in the lesson process, creative and critical thinking, pedagogical innovations.*

Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, muammolarga ijodiy va tanqidiy yondashadigan shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan. Ayniqsa, bu jarayon boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab shakllantirilishi zarur. Chunki aynan shu davrda bolaning tafakkuri, dunyoqarashi va intellektual salohiyati faol rivojlanadi. Tanqidiy fikrlash - bu har qanday ma'lumotga shubha bilan yondashish, tahlil qilish, baholash va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatidir. Ushbu ko'nikma bolalarda erta yoshdan boshlab rivojlantirilsa, ular kelajakda mustaqil, ongli va samarali qaror qabul qiluvchi shaxsga aylanishadi.

Q. Yo'ldoshevning fikricha, boshlang'ich sinf o'quvchilari hali abstrakt tafakkurga to'liq ega emas, ammo ular ko'rgazmali fikrlash, ifoda qilish, taxmin qilish orqali tanqidiy yondashuvga asos solishlari mumkin. Olim o'z tadqiqotlarida dars jarayonida savol-javob, muhokama, taqqoslash va shaxsiy fikr bildirishga imkon beruvchi metodik yondashuvlarni qo'llashni tavsiya etadi. M. Juraeva o'z tadqiqotlarida savol asosida fikrlash metodikasini chuqur o'rgangan. U dars jarayonida ochiq savollar (ya'ni aniq javobi bo'lmagan, fikr yuritishni talab qiladigan savollar) o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda eng muhim vosita deb hisoblaydi. Shuningdek, o'quvchilarning o'z fikrini asoslab berishga o'rgatish – tanqidiy fikrlashga asos yaratadi. S. Juraev boshlang'ich sinf darslariga muammoli vaziyatlar kiritish tarafdori. Uning fikricha, bu yondashuv bolani o'quvchi emas, mustaqil izlanuvchi darajasiga olib chiqadi.

Ayniqsa, adabiyot, atrof-muhitni o'rganish va matematika fanlarida real hayotiy misollar asosida fikr yuritish mashqlari tanqidiy fikrlashni faol rivojlantiradi.

G. Tursunova o'z maqolalarida darslarda o'quvchilarning fikrlar xilma-xilligini qabul qilish, qarama-qarshi fikrlarni solishtirish va asosli xulosa chiqarish kabi bosqichlarga urg'u beradi. Uning tadqiqotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun moslashtirilgan tanqidiy fikrlash mashqlari ishlab chiqilgan. M. Shodmonqulova boshlang'ich sinfda bolalar savol berishdan cho'chimay, o'z fikrini erkin bildirish muhitida tarbiyalanishi zarurligini ta'kidlaydi. U pedagoglar uchun **“Savol-javob asosida o'qitish metodikasi”** asosida dars namunalarini ishlab chiqqan. Bu metodika o'quvchini passiv emas, faol ishtirokchiga aylantiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali hayotiy tajriba va bilim jihatidan cheklangan bo'lishiga qaramay, ularning tafakkuri o'ta faol bo'ladi. Shu sababli ularni tanqidiy fikrlashga o'rgatish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

- savollar berish va mulohaza yuritish qobiliyati ortadi;
- har bir ma'lumotni tahlil qilishga odatlanadi;
- fikrlar xilma-xilligini qabul qilishni o'rganadi;
- qaror qabul qilishda asosli xulosaga keladi.

Amaliy yondashuv: usullar va tavsiyalar

1. “Nima uchun?” savoli asosida dars olib borish

Har bir mavzudan so'ng o'quvchilarga “Nima uchun?”, “Nega aynan shunday?” kabi savollar berish orqali ularni o'ylashga undash mumkin.

Misol: Matematika darsida: “Nega aynan bu usul bilan yechdik?”

Ona tili darsida: “Nega muallif bu so'zni ishlatgan bo'lishi mumkin?”

2. “Fikrlar jadvali” metodi. Dars davomida o'quvchilardan biror mavzu bo'yicha “Men nima bilaman?”, “Yana nimani bilishni istayman?”, “Men nima o'rgandim?” kabi jadval tuzdirish orqali fikrlash jarayonini boshqarish mumkin.

3. Rol o'ynash va munozarali topshiriqlar. Qisqa sahnalashtirishlar yoki kichik guruhlarda beriladigan bahsli savollar orqali o'quvchilarning mulohaza yuritish va fikr bildirish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Misol: “Agar men ertakdagi qahramon bo'lganimda, qanday yo'l tutgan bo'lardim?”

4. “Tasavvur et va taqqosla” topshiriqlari. O'quvchilarga biror predmet, voqea yoki hodisani boshqa shunga o'xshash narsa bilan taqqoslash topshiriqlari beriladi.

Misol: Qish va bahorni taqqoslash; Kitob va telefonning foyda-zararlarini solishtirish.

5. Teskari tafakkur mashqlari. Odatdagi fikrlash yo'nalishidan farqli ravishda, teskari yondashuv bilan topshiriq berish.

Misol: “Agar bu masalada noto'g'ri yo'l tanlasak, nima bo'ladi?” “Agar hech kim o'qimasdan qaror qabul qilsa, jamiyat qanday bo'ladi?”

1. "Bilaman – Bilishni istayman – O'rgandim" jadvali (K-W-L Chart)

Bilaman (K)	Bilishni istayman (W)	O'rgandim (L)
Qushlar uchadi	Qushlar nega janubga uchib ketadi?	Qushlar sovuqdan saqlanish uchun uchadi
Daraxtlar barg to'kadi	Qaysi daraxtlar barg to'kmaydi?	Archa doim yashil bo'ladi
Quyosh nurlari issiq	Quyosh energiyasi nimaga kerak?	Quyosh elektr ishlab chiqaradi

O'quvchi mavzu bo'yicha o'z fikrini bildirishga, savol berishga va xulosa chiqarishga o'rganadi. O'quvchi farqlash va umumlashtirish orqali tanqidiy fikrlaydi.

2. "Sabab – Oqibat" diagrammasi. Mavzu: Kitob o'qish odatining foydasi

SABABLAR

NATIJA (OQIBAT)

- | | | |
|--|---|--|
| ☐ Yangi ma'lumotlar olish | ➡ | ☐ Bilim ortadi |
| ☐ Vaqtini foydali o'tkazish | ➡ | ☐ Vaqtini qadrlash |
| ☐ Tasavvurni rivojlantiradi | ➡ | ☐ Ijodiy fikr kuchayadi |
| ☐ So'z boyligi ortadi | ➡ | ☐ Yaxshi nutq shakllanadi |

O'quvchi sabab va oqibatni tahlil qiladi, mantiqiy fikr yuritishga o'rganadi.

3. "Fikr bildir – Asosla – Xulosa chiqaz" jadvali

Fikr bildir (Ayt)	Asosla (Nega?)	Xulosa (Nima o'rganding?)
Darsda faol qatnashish kerak	Chunki darsni tushunishga yordam beradi	Bilim olish uchun faollik muhim ekan
Atrofni toza tutish kerak	Chunki sog'liq uchun zararli bo'ladi	Tozalik – sog'lik garovidir
Do'stlarga yordam berish kerak	Chunki inson do'stlikka muhtoj	Yaxshi inson yordamchi bo'ladi

O'quvchi o'z fikrini mantiqan asoslab, xulosa chiqarishga o'rgatiladi.

4. "Agar... bo'lsa, nima bo'ladi?" jadvali (Teskari tafakkur)

Agar...	Nima bo'ladi?
Hech kim kitob o'qimasa	Insonlarning bilim darajasi pasayadi
Yolg'on gapirish odat tusiga kirs	Odamlar bir-biriga ishonmay qo'yadi
Darsga kechikish odatiy holga aylansa	Bilim olishda orqada qolish mumkin

O'quvchi hodisalarni oqibatlar bilan tahlil qiladi – bu tanqidiy fikrlashning asosi.

Xulosa. Zamonaviy ta'lim dunyosida o'quvchilarni shunchaki bilim oluvchilar emas, balki faol fikrlovchi, o'z qarashlariga ega, mustaqil xulosa chiqarishga qodir shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb vazifaga aylangan. Bu jarayon ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlanishi lozim. Chunki aynan shu davrda bolaning tafakkur faoliyati shakllanadi, asosiy kognitiv (bilish) qobiliyatlari rivojlanadi va fikrlashning asosi qo'yiladi. Boshlang'ich sinfda tanqidiy fikrlashni shakllantirish quyidagilarga xizmat qiladi:

- shunchaki bilim yodlash emas, balki uni tushunish va tatbiq qilishni o'rgatadi;

- o'quvchining fikrlash doirasini kengaytiradi, o'z fikrini asoslashga undaydi;

- ijodkorlik va mantiqiy tahlil ko'nikmalarini uyg'un rivojlantiradi;

- samarali muloqot, fikr almashish va o'z nuqtai nazarini himoya qilish madaniyatini shakllantiradi.

Amaliy yondashuvlar orqali erishiladigan natijalar: **1)** Savol-javob, taqqoslash, teskari tafakkur, muammoli vaziyatlar, rol o'ynash kabi metodlar orqali o'quvchilar dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi; **2)** Har bir o'quvchining fikri tinglanadi va qadrlanadi – bu esa ularning o'ziga ishonchini oshiradi; **3)** Darslar yod olishga emas, fikrlashga asoslanadi, natijada chuqurroq o'zlashtirish yuzaga keladi. Ilmiy-nazariy manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki: O'zbek va xorijiy olimlar (J. Dyui, R. Pol, Q. Yo'ldoshev, M. Juraeva va boshqalar) tanqidiy fikrlashni shaxs kamolotining negizi deb baholaydilar; Ularning tadqiqotlari bolalarda fikrlashning erta bosqichda shakllanishi zarurligini, bu esa butun hayotiy muvaffaqiyatlar poydevorini belgilashini isbotlab beradi. Shunday qilib, tanqidiy fikrlash — bu hozirgi va kelajak avlod uchun asosiy hayotiy kompetensiyalardan biridir. Boshlang'ich ta'limda bu ko'nikmani shakllantirish o'qituvchidan: puxta metodik tayyorgarlikni, o'quvchi psixologiyasini chuqur tushunishni, sabr-toqat bilan muloqot olib borishni talab qiladi. Agar har bir o'qituvchi dars jarayonida o'quvchini faqat bilim egallovchi emas, balki fikrlovchi shaxs sifatida ko'ra olsa, bu — tanqidiy fikrlashni shakllantirish yo'lidagi eng muhim qadam bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Paul, R., & Elder, L. (2012). The Miniature Guide to Critical Thinking: Concepts and Tools. Foundation for Critical Thinking.
2. Dewey, J. (1933). How We Think. D.C. Heath and Company. (Tarjimasi asosida foydalanilgan)
3. Ennis, R. H. (2011). Critical Thinking: A Streamlined Conception. Teaching Philosophy, 14(1), 5–24.

4. Gershunsky, B. S. (1998). Falsafa, pedagogika va innovatsiyalar. Moskva: Pedagogika nashriyoti.
5. Q. Yo'ldoshev. (2020). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va tanqidiy fikrlash. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
6. M. Juraeva. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish metodikasi. Ilmiy maqola. // "Ta'lim va innovatsiya" jurnali, №3, 45–49-betlar.
7. S. Juraev. (2019). Muammoli ta'lim – tanqidiy tafakkur garovi. // "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, №2.
8. G. Tursunova. (2022). O'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantirish metodikasi. // "Pedagogika va psixologiya" ilmiy-amaliy jurnali, №1.
9. M. Shodmonqulova. (2020). Savol-javob asosida o'qitish – faol tafakkur omili. // "Yangi O'zbekiston ta'limi" jurnali, №4.
10. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2023). Boshlang'ich ta'lim metodikasi bo'yicha uslubiy qo'llanma. Toshkent: XTV nashriyoti.
11. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar: o'quv qo'llanma / Tahrir hay'ati: M. Jo'raev va boshqalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
12. Sharopova, Z. (2025). TANQIDIY FIKRLASH VA MUSTAQIL FIKRLASH DIALEKTIKASI. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 4(21).